

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI HUZURIDAGI
IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
HUZURIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH
ILMIY-AMALIY MARKAZI**

**YAPON TILI FANIDAN PEDAGOG KADRLARNING KASBIY
SERTIFIKATLASH TEST TIZIMI UCHUN TEST**

SPETSIFIKATSIYASI

Toshkent – 2026

YAPON TILI FANIDAN PEDAGOG KADRLARNING KASBIY SERTIFIKATLASH TEST TIZIMI UCHUN TEST SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya pedagog kadrlar (stajyor - o'qituvchi)ni yapon tili fanidan bilim va ko'nikma darajalarini aniqlash malaka sinovining umumiy tamoyillari, me'yoriy asoslari, baholashning qamrovi, baholash mezonlari va malaka sinovini o'tkazish tartibiga qo'yiladigan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgorlarning yapon tili fani o'qitish metodikasi bo'yicha nazariy bilimlari, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash.

Ushbu baholash natijalari asosida pedagog kadrlar egallashi lozim bo'ladigan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni aniqlashda qabul qilinadigan qarorlar asosli bo'lishini ta'minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta'minlanadi.

II. Me'yoriy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida” 2024-yil 12-fevraldagi 87-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2026-yil 3-iyuldagi “Davlat maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini kasbiy sertifikatlash nazorat sinovini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida”gi 233-son buyrug'i.

III. Baholash qamrovi

Yapon tili fani o'qituvchilari uchun malaka sinovida jami 50 ta test savollari (mutaxassislik fanidan 40 ta, pedagogik mahorat fanidan 10 ta) topshirig'i taqdim etiladi va test topshiriqlarini bajarish uchun 90 daqiqa (mutaxassislik fani hamda pedagogik mahorat) vaqt beriladi. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to'g'ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari, moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari*) foydalaniladi. Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan konstruktlar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan konstruktlar bo'yicha taqsimoti

1- jadval

Mazmun sohasi	Baholanadigan konstruktlar	Test topshiriqlari soni
I. YAPON TILI		40 ta
1. Til sohalarning qo'llanilishi (1 - 35 savollar)		
Fonetika	- Minimal juftliklar (minimal pairs) orqali ma'no farqlovchi tovushlarni kontekstga qarab ajratish (masalan: ship/sheep, bad/bed); - Ikki va undan ortiq bo'g'inli so'zlarda asosiy urg'u (primary stress) tushadigan bo'g'inni aniqlash; - Gapning mazmuniga qarab mantiqiy urg'u (sentence stress) qaysi so'zga tushishini belgilash; - Savol turlari yoki his-tuyg'u ifodasiga ko'ra ohangning ko'tarilishi yoki pasayishini (rising/falling intonation) to'g'ri ko'rsatilgan variantni tanlash.	4
Grammatika	- grammatik strukturaning nomini va qo'llanilish o'rinlarini tanlash; - berilgan kontekstga mos grammatik birlik tanlash; - berilgan nutq namunasida grammatik xatoni topish va tushuntirish; - berilgan gap yoki jumlaning grammatik transformatsiya qilish (o'zgartirish); - grammatik xato sababini berilgan variantlar ichidan tanlash; - berilgan gapning grammatik jihatdan to'g'ri o'zgartirilgan variantini aniqlash; - o'xshash grammatik shakllardan ma'noga eng mosini tanlash.	13
Leksika	- berilgan kontekstga mos leksik birlikni tanlash; - berilgan leksik birlikning kontekstdagi ma'nosini aniqlash; - berilgan leksik birlikka kontekstga mos sinonimni tanlash; - so'z yasashi qoidalari asosida berilgan kontekstga mos so'z yasash; - ma'nosi yaqin bo'lgan leksik birliklar orasidan kontekstga eng mosini tanlash (near-synonyms: say / tell / speak / talk).	12

Pragmatika	- berilgan vaziyatga mos og‘zaki va (yoki) yozma nutq namunasini tanlash; - berilgan og‘zaki va (yoki) yozma nutq namunasining kontekstda nazarda tutilgan ma’nosini anglash (literal meaning (to‘liq ma’no), irrelevant interpretation, opposite meaning, exaggerated meaning); - berilgan og‘zaki va (yoki) yozma nutq namunasining ijtimoiy va kommunikativ jihatdan kontekstga mosligiga baho berish. - diskurs (suhbat) asosida mos javobni tanlash (random statement, off-topic comment, irrelevant fact, confusing remark); - berilgan kontekstga mos muloqot strategiyasini aniqlash (making suggestion instead of request, giving unrelated information, expressing opinion instead of asking, ignoring speaker’s intent); - xohish yoki niyatni farqlash (giving direct order, expressing anger, asking irrelevant question, making a statement unrelated to intent).	6
2. O‘qib tushunish (36 - 40 savollar)		
O‘qib tushunish	- matnning asosiy g‘oyasi, maqsadi va auditoriyasini, muallif pozitsiyasini aniqlash; - matnda ochiq aytilmagan ma’lumotlar, fikrlar, g‘oyalarni anglash; - matndagi fakt va fikrni farqlash; - matnda tasvirlangan voqealar ketma-ketligini tushunish; - matn qismlari o‘rtasidagi mantiqiy va diskursiv bog‘lanishlarni tushunish (masalan, sabab-oqibat, qarama-qarshilik, izohlash, ketma-ketlik).	5

Pedagogik mahoratdan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko‘nikmalari bo‘yicha taqsimoti

2-jadval

II. PEDAGOGIK MAHORAT	10 ta
------------------------------	--------------

Pedagogik mahorat	– pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asoslari va yondashuvlarini bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogikaning tamoyillari (onglilik va faollik, ko'rgazmalilik, tizimlilik va muntazamlilik, ilmiylik, nazariya va amaliyot birligi va boshqalar)ni bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – tarbiya va uning turlarini bilish, bir-biridan farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – dars va uning turlarini bilish, darsni rejalashtirish, tashkil etish va sinfni boshqarish yondashuvlarini konkret vaziyatlarda qo'llay olish; – sinf rahbarining huquq va majburiyatlarini bilish, sinf hujjatlari bilan ishlay olish, ularni yuritishda to'g'ri ketma-ketlikka amal qilish, sinf jamoasini to'g'ri shakllantirish, muloqotda pedagogik etika qoidalariga amal qilish, ota-onalar bilan hamkorlikning samarali shakllarini tanlash, muammoli vaziyatda eng maqbul strategik yondashuvni qo'llash; – pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o'sish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogik qobiliyat va uning turlari (didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, perseptiv-pedagogik qobiliyat, nutq madaniyati, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ qobiliyat, avtoritar qobiliyat va boshqalar)ni bilish va konkret vaziyatlarda qo'llay olish, – ta'lim texnologiyalari (loyihaga asoslangan ta'lim, muammoli ta'lim, hamkorlikdagi ta'lim, evristik ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interfaol ta'lim, differensial ta'lim, integral ta'lim, o'yinli ta'lim, inklyuziv ta'lim va boshqalar)ni bilish va vaziyatlarga mosini tanlay olish; – fan mazmun sohasini o'qitish yondashuvlari, metodikasi va texnologiyalarini bilish; – fan sohasini o'qitish usullari va metodlarini farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlash; – fan sohasini o'qitish bo'yicha berilgan ta'limiy vaziyatga oid qabul qilingan qarorlarga baho berish.	10
--------------------------	---	----

Test topshiriqlarining kognitiv ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan

3-jadval

Kognitiv ko'nikmalar taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Testdagi ulushi
1	Bilish va tushunish	Fanga doir nazariy ma'lumotlar, atamalar, qoidalar, tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmuni, maqsadi va qo'llanilishini tushunish	22
2	Qo'llash	Bilim, tushuncha va protseduralarni yangi (notanish) kontekstlarda qo'llay olish	23
3	Mulohaza qilish	Faktlar, dalillar, fikrlarni taqqoslash, tahlil qilish, taxmin qilish va xulosa(lar) chiqarish	5

IV. Baholash mezonl

Test topshiruvchining natijasini (raw score) hisoblash uchun har bir to'g'ri javobga 2 ball, noto'g'ri javob uchun ball berilmaydi. Eng yuqori natija 100 ballni tashkil qiladi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. みんなの日本語、初級 I、日本、スリーエーネットワーク、дарслик, 2012
2. みんなの日本語、初級 II、日本、スリーエーネットワーク、дарслик, 2012
3. Yapon tili boshlang'ich darajasi I, O'zbek tilidagi tarjima va Grammatik tahlil, дарслик, 2019
4. Yapon tili boshlang'ich darajasi II, O'zbek tilidagi tarjima va Grammatik tahlil, дарслик, 2019
5. 松岡弘級を教える人のための日本語文法ハンドブック、スリーエーネットワーク、дарслик, 2003.
6. 友松悦子、宮本淳、和栗雅子、「どんなとき、どう使う日本語表現文型200 “アルク”2000年

Pedagogik mahorat bo'yicha manbalar

1. Mavlonova R.A., Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – 528 b.
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, – Toshkent: “Bayoz” nashriyoti, 2025. – 504 b.
3. Tolipov O'., Ro'ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – Toshkent: “Innovatsiya-ziyo” nashriyoti, 2019. – 276 b.
4. Sh. Abdiraimov v.b. Ta'limda baholash va monitoring asoslari. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent, TDYU nashriyoti, 2026. – 208 bet.

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.